



UDK:303.01

Xilolaxon BAKIROVA

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti v.b., PhD

E-mail: ms.khilola@bk.ru

TDYU Professori, pedagogika fanlari doktori, D.Xoshimova taqrizi asosida

TALABALARNI MUSTAQIL ISHLASHGA YO'NALTIRISHDA AXBOROT RESURSLARINING ROLI

Annotatsiya

Maqolada talabalarining mustaqil ishlashiga yo'naltirishda axborot resurslarining o'rni yoritilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va ochiq axborot platformalari talabalarining mustaqil ta'lim olish, tanqidiy fikrlash va tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda. Tadqiqotda elektron kutubxonalar, ma'lumotlar bazalari va onlayn o'quv muhitlaridan samarali foydalanish talabalarining o'z-o'zini o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'kidlaydi. O'qituvchi bu jarayonda yo'naltiruvchi va motivatsiya beruvchi sifatida muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, axborot resurslari, raqamli kompetensiya, o'z-o'zini o'qitish, oliy ta'lim, talaba faolligi.

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ РЕСУРСОВ В НАПРАВЛЕНИИ СТУДЕНТОВ К САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье рассматривается роль информационных ресурсов в направлении студентов к самостоятельной учебной деятельности. В современных условиях образования цифровые технологии и открытые информационные платформы становятся важными средствами развития у студентов навыков самообразования, критического мышления и исследовательской компетенции. Подчеркивается значение электронных библиотек, баз данных и онлайн-сред, способствующих формированию автономии и мотивации учащихся. Преподаватель при этом выступает в роли наставника, направляющего студентов на эффективное использование цифровых инструментов в учебных целях.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, информационные ресурсы, цифровая компетенция, самообразование, высшее образование, автономия студентов.

THE ROLE OF INFORMATION RESOURCES IN DIRECTING STUDENTS TOWARDS THE INDEPENDENT LEARNING

Annotation

The article discusses the role of information resources in directing students toward independent learning. In the modern educational context, digital technologies and open information platforms have become essential tools for developing students' self-study skills, critical thinking, and research competence. The study emphasizes how properly integrated information resources, such as electronic libraries, databases, and online learning environments, can enhance learner autonomy and motivation. The findings highlight the need for teachers to act as facilitators who guide students in effectively using digital tools for academic growth.

Key words: Independent learning, information resources, digital competence, self-education, higher education, student autonomy.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim jarayonida talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Xususan, sohaviy tarjimonlar tayyorlashda axborot resurslari ularga ilmiy manbalar, terminologik ma'lumotlar va texnologik vositalar orqali chuqur bilim olish imkonini beradi. Axborot resurslari yordamida talaba nafaqat tayyor ma'lumotlarni o'zlashtiradi, balki izlanish olib borish, tahlil qilish va amaliy qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi [4].

Axborot resurslaridan foydalanish talabalarda mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Shuningdek, ular axborot manbalarini tahlil qilish va solishtirish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday jarayon zamonaviy texnologiyalarni amaliy qo'llash malakasini shakllantiradi hamda sohaviy terminologiya va tarjima ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Axborot resurslarining quyidagi asosiy turlarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etishimiz mumkin:

1. Elektron kutubxonalar

Elektron kutubxonalar talabalarga cheksiz hajmdagi ilmiy maqolalar, monografiyalari, dissertatsiyalar va o'quv qo'llanmalarini onlayn rejimda taqdim etadi. Masalan:

Ziynet – (<https://www.ziynet.uz>) O'zbekistonning milliy elektron ta'lim portalini.

National Digital Library of Uzbekistan – (<https://ndl.uz>) ilmiy va ta'limiy materiallarni to'plami.

Energetika sohasi talabalari uchun ushbu kutubxonalar xalqaro standartlar (ISO, IEC), texnik reglamentlar, energetika bo'yicha statistik hisobotlar va ilmiy maqolalarni izlashda foydalidir [5].

Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot resurslari talabalarni mustaqil izlanishga, sohaga oid bilimlarni chuqurlashtirishga va tarjima ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, tezkor qidiruv va filtrlar orqali foydalanuvchi qisqa vaqt ichida aniq va kerakli ma'lumotga ega bo'lish imkoniga ega bo'ladi; ikkinchidan, masofadan turib 24/7 rejimida foydalanish imkoniyati mavjud; uchinchidan, ko'p tilda resurslarning mavjudligi foydalanuvchiga turli tillardagi ma'lumotlarni bir joyda izlash va solishtirish imkonini beradi [7].

Biroq, ushbu afzalliklarga qaramay, ayrim kamchiliklar ham kuzatiladi. Masalan, ba'zi resurslar eskirgan yoki noto'g'ri ma'lumotlarni o'z ichiga olishi, foydalanuvchining xato

xulosalarga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, sifatli va to'liq ma'lumotlar bazasining pullik bo'lishi talabalar uchun imkoniyatlarni cheklashi mumkin. Ko'p hajmdagi ma'lumot ichida foydalanuvchiga eng keraklisini tanlab olish jarayoni esa qo'shimcha vaqt va ko'nikma talab qiladi [4].

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni qo'llash maqsadga muvofiq:

Ma'lumot manbalarining ishonchligini tekshirish va faqat ilmiy asoslangan resurslardan foydalanish;

Talabalarni axborotni filtrlash, tanqidiy tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga o'rgatish;

Ochiq manbali (open access) platformalarni kengaytirish;

Resurslarni muntazam yangilash va texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlash.

Shunday yondashuvlar orqali axborot resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

2. Onlayn terminologik bazalar va lug'atlar

Sohaviy tarjimada terminlarning izchilligini ta'minlash uchun onlayn terminbanklar va lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Masalan:

Energetika vazirligi terminologiya portalini – o'zbek–rus ikki tilli energetika terminlari bazasi. (<https://www.gov.uz/ru/minenergy/sections/tamalar-lug-ati>)

IATE (Interactive Terminology for Europe) – (<https://iate.europa.eu>). ko'p tildagi xalqaro terminologiya manbasi.

Energetika matnlarini tarjima qilishda ushbu bazalar kontekstga mos va aniq termin tanlash imkonini beradi [3].

Onlayn terminologik bazalar sohaviy tarjima jarayonida yuqori samaradorlik va sifatni ta'minlashga xizmat qiladigan muhim elektron resurslardir. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, terminologik aniqlik va izchillik – har bir termin qat'iy ravishda ma'lum standart va kontekstga mos holda qo'llanadi, bu esa tarjima sifatini oshiradi; ikkinchidan, kontekstli izohlar – foydalanuvchiga terminning turli sohalaridagi qo'llanilishiga doir aniq misollarni ko'rsatadi; uchinchidan, yangi terminlar bilan muntazam yangilanish – bazaning dolzarbligini saqlab turadi va foydalanuvchilarni so'nggi terminologik o'zgarishlardan xabardor qiladi [6].

Shu bilan birga, ayrim kamchiliklar ham mavjud. Ba'zi terminologik bazalar ma'lumotlarning eskirishi, ayrim terminlarning kontekstsiz taqdim etilishi yoki qamrov doirasining torligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ayrim professional bazalar pullik bo'lgani sababli talabalar va yosh mutaxassislar uchun imkoniyatlarni cheklashi mumkin [1].

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

Terminologik bazalarni muntazam ravishda yangilab borish va ularni sohaviy ekspertlar tomonidan tekshirish;

Bepul va ochiq manbalarni kengaytirish hamda ta'lim muassasalarida ulardan foydalanish imkoniyatini yaratish;

Har bir termin uchun qo'shimcha kontekstli misollar va multimedia materiallarini qo'shish;

Foydalanuvchilarning fikr-mulohazalari asosida interfeys va qidiruv tizimini takomillashtirish.

Shunday yondashuvlar orqali onlayn terminologik bazalardan foydalanish samaradorligini oshirish va sohaviy tarjima sifatini yuqori darajada ta'minlash mumkin.

3. Ochiq ta'lim platformalari

Ochiq onlayn kurslar (MOOC) zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarni mustaqil bilim olishga yo'naltiruvchi eng samarali vositalardan biridir. Coursera, EdX va Udemey kabi platformalarda energetika va texnika sohalariga oid maxsus kurslar taklif etiladi. Masalan, Coursera –

(<https://www.coursera.org>) Energy Production, Distribution & Safety kursi; EdX – (<https://www.edx.org>) Renewable Energy and Green Building Entrepreneurship; Udemey – (<https://www.udemy.com>) Technical English for Engineers. Ushbu kurslar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy laboratoriya ishlari, interaktiv topshiriqlar va real loyihalar orqali ko'nikmalarni rivojlantiradi [7].

Ochiq ta'lim platformalarining afzalliklari shundaki, ular talabalarga global ekspertiza va kontentga kirish imkoniyatini beradi, ya'ni dunyo miqyosidagi yetakchi universitetlar va mutaxassislardan bevosita ta'lim olish imkoniyati yaratiladi. Ular moslashuvchan bo'lib, talaba o'z vaqtida va o'z tezligida kursni o'zlashtira oladi. Bundan tashqari, amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, laboratoriya ishlari, simulyatsiyalar va loyihaviy topshiriqlar orqali tajriba orttirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ko'p tilda taqdim etilishi tufayli ba'zi kurslar bir nechta tillarda yoki subtitrlar bilan taqdim etiladi, bu esa bilim olish jarayonini yanada qulaylashtiradi.

Lekin mazkur ochiq ta'lim platformalarining ayrim kamchiliklardan ham holi emas. Kamchiliklari shundan iboratki, ular internetga to'liq bog'liq bo'lib, barqaror internet aloqasi mavjud bo'lmagan hududlarda foydalanish qiyinlashadi. Shuningdek, o'zini o'zi rag'batlantirish zarurati yuqori bo'lib, qatnashchilar kursni yakunlamaslik xavfi mavjud. Kurslar asosan global standartlarga mos ishlab chiqilgani sababli, mahalliy kontekst yetishmasligi kuzatiladi va mintaqaviy ehtiyojlar har doim to'liq qamrab olinmaydi. Bundan tashqari, ayrim ish beruvchilar MOOC sertifikatlarini rasmiy diplom sifatida tan olmasligi mumkin, bu esa ularning mehnat bozoridagi qiymatini kamaytiradi.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

O'quv jarayonini mahalliy o'quv dasturlari bilan integratsiya qilish;

Internet infratuzilmasini rivojlantirish va oflayn materiallarni yuklab olish imkoniyatini kengaytirish;

Talabalar uchun motivatsion va mentorlik dasturlarini tashkil etish;

Mintaqaviy ehtiyojlarga moslashtirilgan maxsus MOOC modullarini ishlab chiqish.

Shu tarzda, MOOC platformalari sohaviy tarjima va energetika yo'nalishidagi bilimlarni tezkor va moslashuvchan shaklda o'zlashtirishga xizmat qiladi.

4. CAT vositalari va tarjima dasturlari

Zamonaviy tarjima texnologiyalari – (<https://www.trados.com>) SDL Trados Studio, (<https://www.memoq.com>) MemoQ, (<https://www.smartcat.com>) Smartcat – talabalarni texnik hujjatlar tarjimasida yuqori sifat va izchillikka erishishga o'rgatadi. CAT vositalari yordamida talabalar:

Translation Memory bilan ishlaydi.

Terminologiya boshqaruvi.

Sifat nazorati modullaridan foydalanishni o'rganadilar [6].

CAT vositalari va tarjima dasturlarining afzalliklari shundaki, ular tarjima jarayonida terminologik izchillik va yuqori sifatni ta'minlaydi. Translation Memory texnologiyasi tufayli oldingi tarjimalarni avtomatik qo'llash imkoniyati yaratiladi, bu esa vaqt va resurslarni tejaydi. Terminologiya boshqaruvi funksiyalari texnik sohalarida bir xil terminlardan foydalanishni kafolatlaydi. Sifat nazorati modullari esa grammatik va texnik xatolarni minimal darajaga tushirish imkonini beradi.

Biroq, bu vositalarning kamchiliklari ham mavjud. Litsenziya narxlarining yuqoriligi kichik budjetli ta'lim muassasalari va talabalar uchun cheklov bo'lishi mumkin.

Yangi foydalanuvchilar uchun dasturlarni o'zlashtirish jarayoni murakkab va vaqt talab qilishi ehtimoli yuqori. Shuningdek, ba'zi CAT vositalari til juftliklari va formatlar bo'yicha cheklangan imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir necha choralar qo'llanilishi mumkin:

Talabalar ochiq kodli va bepul alternativlarni (OmegaT, MateCat) tavsiya etish.

Trening va amaliy mashg'ulotlar orqali dasturlar bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash.

Ta'lim muassasalarida talabalar uchun akademik litsenziyalarni joriy etish.

5. Mediaresurslar

Video, podkast, infografika kabi mediaresurslar talabani ko'pkanalli (multimodal) o'rganish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan:

YouTube Engineering Channels–elektr stansiya ishlash prinsipi animatsiyalari (https://www.youtube.com/results?search_query=engineering+channels).

TED-Ed – (<https://ed.ted.com>) energetika bo'yicha qisqa ma'lumotli video darslar.

Bunday resurslar texnik jarayonlarni ko'rish va eshitish orqali chuqur tushunishga yordam beradi [2].

Mediaresurslar, jumladan video, podkast va infografikalar, talabalar o'quv jarayonida ko'pkanalli (multimodal) o'rganish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Bunday vositalar texnik va murakkab jarayonlarni vizual va eshitish kanallari orqali yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Masalan, YouTube'dagi "Engineering Channels" elektr stansiyalarning ishlash prinsipini animatsiya orqali ko'rsatadi, TED-Ed esa energetika bo'yicha qisqa va mazmunli darslarni taqdim etadi. Bu resurslardan foydalanish talabada mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantiradi, axborot manbalarini tahlil qilish va solishtirish qobiliyatini

rivojlantiradi, zamonaviy texnologiyalarni amaliy qo'llash imkonini beradi hamda sohaviy terminologiya va tarjima malakalarini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, mediaresurslarning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Birinchidan, internetga bog'liqlik sababli, barqaror internet aloqasi bo'lmagan hududlarda ulardan samarali foydalanish qiyin bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, kontent sifati va ishonchliligi har doim ham kafolatlanmaydi – ayrim videolar yoki podkastlar ilmiy asosga ega bo'lmashligi mumkin. Uchinchidan, ortiqcha vizual va audio yuklama talabani asosiy mavzudan chalg'itishi ehtimoli bor.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun:

Faqat ishonchli va tekshirilgan manbalardan foydalanish.

O'quv jarayonida mediaresurslarni asosiy o'quv materiallari bilan integratsiya qilish.

Zarur hollarda oflayn ko'rish imkonini beruvchi yuklab olish funksiyalaridan foydalanish.

Kontentni pedagogik maqsadlarga moslab, ortiqcha tafsilotlarni kamaytirish.

Xulosa. Talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltirish jarayonida axborot resurslarining o'rni beqiyosdir. Zamonaviy elektron kutubxonalar, onlayn terminologik bazalar, ochiq ta'lim platformalari, CAT vositalari va mediaresurslar nafaqat sohaviy bilimlarni chuqurlashtirish, balki talabalarda mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu resurslar yordamida o'quv jarayoni an'anaviy yondashuvdan chiqib, global axborot makoni imkoniyatlari bilan boyitiladi. Natijada, talabalar xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni egallab, real soha talablariga tayyor kadr sifatida shakllanadi. Shu bois, oliy ta'lim tizimida axborot resurslaridan maqsadli va tizimli foydalanish mustaqil ta'lim sifatini oshirishning strategik omillaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Anderson T. Theories for learning with emerging technologies. – Edmonton: Athabasca University Press, 2010. – 472 p.
2. Bielsa, E., Bassnett, S. Translation in Global News [Elektron resurs]. – London: Routledge, 2009. – 180 p. <https://doi.org/10.4324/9780203869540> (murojat sanasi: 07.08.2025).
3. European Union. Interactive Terminology for Europe (IATE) [Elektron resurs]. – 2022. Mode of access: <https://iate.europa.eu> (murojaat sanasi: 09.08.2025).
4. Little D. Learner autonomy: Definitions, issues and problems. – Dublin: Authentik Language Learning Resources Ltd., 1991. – 192 p.
5. OECD Skills Outlook 2019: Thriving in a Digital World. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 350 p.
6. Pym A. Translation technology and training // Translation Research Projects 3 / ed. by A. Pym. – Tarragona: Intercultural Studies Group, Universitat Rovira i Virgili, 2011. – P. 1–9.
7. Siemens G. Connectivism: A learning theory for the digital age. – International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005. – Vol. 2, No. 1. – P. 3–10.
8. Siemens G. Connectivism: A learning theory for the digital age. – International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005. – Vol. 2, No. 1. – P. 3–10.